

Barziyev Oybek Xabibullayevich, fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Farg'ona davlat universiteti



MIRZO ABDULLA NASRIDDINOV BOKIY IJODIDAGI O'ZIGA XOSLIKLAR

<https://zenodo.org/records/18728992>

Annotatsiya: Maqolada milliy uyg'onish davri Farg'ona adabiy muhitining vakili manbashunos va matnshunos Mirzo Abdulla Nasriddinovning hayot va ijod yo'li haqida fikr yuritiladi. Uning shoirlik mahorati va ilm-fan ravnaqi yo'lida amalga oshirgan ezgu ishlari xususida to'xtalgan holda milliy uyg'onish davri adabiyotiga qo'shgan ulkan hissasi bayon qilinadi. Shu bilan birga shoirning yozgan g'azallarini mavzu doirasiga ko'ra tasnif etish asosiy maqsadlardan sanaladi.

Kalit so'zlar: Boki haqidagi yodnomalar, ishqiy lirika, ijtimoiy lirika, shoirning tavallud yili haqidagi fikrlar, "Boki guldastasi" devoni, vatanparvarlik mavzusi.

PECULIARITIES IN THE WORK OF MIRZO ABDULLA NASRIDDINOV BOKIY

Annotation. The article reflects on the life and creative path of Mirzo Abdulla Nasriddinov, a source scholar and textual critic, the founder of the Fergana literary environment of the national revival period. His great contribution to the literature of the national revival period is described, focusing on his poetic skills and the noble work he did for the development of science. At the same time, one of the main goals is to classify the poet's ghazals according to thematic scope.

Key words: Memoirs about Boki, romantic lyrics, social lyrics, thoughts on the poet's birth year, the "Boki guldastasi" divan, the theme of patriotism.

ХАРАКТЕРИСТИКИ МИРЗО АБДУЛЛЫ НАСРИДДИНОВА В ВЕЧНОМ ТВОРЧЕСТВЕ

Аннотация: статье рассматривается жизнь и творческий путь Мирзо Абдуллы Насриддинова, историолога и текстолога, основателя ферганской литературной среды периода национального возрождения. Описывается его огромный вклад в литературу этого периода, особое внимание уделяется его поэтическому мастерству и благородной работе, которую он проделал для развития науки. При этом одной из главных целей является классификация газелей поэта по тематике.

Ключевые слова: Воспоминания о Боки, романтическая лирика, социальная лирика, размышления о годе рождения поэта, диван «Бокий Гульдастаси», тема патриотизма

Kirish.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida yuzaga kelgan milliy uyg'onish adabiyoti namoyandalari orasida rishtonlik Mirzo Abdulla Nasriddinov Boki (1882-1967) alohida o'rin egallaydi. U nafaqat shoir, balki tarixiy manbalarni to'plash, ulardan ilmiy foydalanish bilan shug'ullangan manbashunos olim sifatida ham tanilgan. Uning ijodi va faoliyati jadidchilik harakatining ma'rifatparvarlik g'oyalariiga yaqin bo'lib, o'zbek adabiy va ilmiy merosida muhim iz qoldirgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Manbashunos shoirning hayot va ijod yo'li haqida "Oqsoqollar kalomi. G'azallar, murabba'lar, muxammaslar, qasidalar" [1; 2] nomli she'riy bayoz, O.Ahmedovanning "Girya. Hikoya va hajviyalar" [2;2] nomli xotira mazmunidagi risolasi, M.Boborahimovning "Boki" [1;1] nomli kichik qo'llanmasi, Ch.Nizomiddinovaning "Barhayot gulshan" [4;] nomli risolasi hamda "Boki guldastasi" [5; 2] nomli she'riy devon orqali ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Shoirning taxallusi haqida gap ketganida, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan pedagog Po'lotjon Qayumiyning "Tazkirai Qayumiy" asari VI daftarida, Sobir Abdullaning "Mavlono Muqimiy" romani 3-jildining 17-bobida ifodalangan "Xushmanzara manzillarga" nomli faslida, G'afur G'ulomning "Nazm va nasr" nomli risolasida "Boki" ya'ni arabcha "yig'lovchi" ma'nosini anglatishi ta'kidlangan.

Biroq akademik G'afur G'ulomning qizi Olmos Ahmedovanning "Girya" nomli risolasida 1958-yil 30-iyuldagi shoir xonadoniga tashrif asosida yozilgan "Sayohat" taassurotlari "Rishton" hikoyasida esa "Boqi" taxallusi qo'llanilgan.

Bizningcha, ko'plab manbalarda "Boki" taxallusining qo'llanganligi va shoir ijodida ruhiyat motivlarining kuchli aks etganligiga ko'ra "Boki" deb yozilishi haqiqatga to'g'ri keladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot jarayonida avtobiografik va psixologik, talqin nazariyasi usullaridan o'rinli foydalanildi.

Natija va muhokama.

Shoir ijodidagi asosiy mavzular aholini ilm-ma'rifatga da'vat qilish, jaholatni qoralash, vatanparvarlik, axloqiy-ruhiy tarbiyani targ'ib qilish tashkil etadi. Boki adabiy merosidagi asosiy janrlari g'azal, muxammas, musaddas, ruboiy, ta'rixlar sanaladi. Uslubi sodda, xalqona, shu bilan birga mumtoz an'analar bilan uyg'unlikka ega.

"Boki devoni"da shoirning mumtoz lirik janr namunalaridan tashqari, tarixiy shaxslar, zamonasining ijtimoiy muammolari haqida yozilgan she'rlar ham jamlangan. Boki nafaqat shoir, balki olim sifatida ham qadrlanadi. U Farg'ona vodiysi va undan tashqarida mavjud bo'lgan qo'lyozma manbalarni yig'gan holda tadqiq qilgan. U eski tarixiy va adabiy manbalarni o'qib, ular ustidan sharh va izohlar yozgan olimlardan sanaladi. Ayniqsa, o'z davri tarixiga oid manbalarni saqlab qolishda alohida xizmatlar qilgan. Uning manbashunoslik faoliyati keyingi tarixchilar uchun muhim manba vazifasini o'tayshi muqarrar.

Bokiyning tavallud yili haqida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan pedagog, adabiyotshunos Po'lotjon Qayumiyning "Tazkirai Qayumiy" asarida qayd etilgan bo'lib, uning bir g'azal solnomasini zamondoshi Chustiyga ba'g'ishlaganligi haqida to'xtalib o'tilgan:

"... Roshidonda olim oilasida 1880-nchi yilda dunyoga kelmishdur. Nomi mirzo Abdulla maxdum bo'lub mulla Nasriddin o'g'lidur. Tarix va adabiyotga tavsih ma'lumoti ila shuhratli shoir, munavvar ul fikr, buyuk olim va shoirdur. Tasavvuf

ruhiga yaqinroq ma'noda "Bokiy" taxallus ixtiyor etmishdurlarki, "Yig'lavchi" demakdir. Bedilxonlikda, shaxmotda ham tanilgan kishi bo'lub Xo'qand shahari va atrofida yagona bir fozildur. Ayrim devoniga ko'zimiz tushmadi"[6; 641-642].

Bokiy devoni va manbashunoslik faoliyati zamonaviy o'zbek adabiyoti va tarixshunosligi uchun qimmatli manba hisoblanadi. Shoirning asarlarini ilmiy nashrga tayyorlash, izoh va sharhlar berish, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish bugungi kun vazifalaridan biridir. U o'zining she'riy merosi bilan adabiyotimizni boyitgan, manbashunos sifatida esa tarixiy-ilmiy xazinamizni asrab qolishda beqiyos hissa qo'shgan vodiyning olimlaridan sanaladi.

Bokiy ijodida ko'hna mumtoz she'riy janr g'azal an'analariga suyangan holda yangi davr g'oyalarini (ma'rifat, millat, vatan, jaholatga qarshi kurash)ni qalamga oldi. Uning g'azallari xalqona ohangda va sodda, xalq tiliga yaqin bitilgani, shu bilan birga badiiy jihatdan nafisligi ajralib turadi. Lirik asarlarida ko'plab xalqona iboralar, maqol-matal va hikmatlar uchraydi.

Bokiy ijodidagi asosiy mavzular ishqiy g'azallar (ilohiy va majoziy muhabbat uyg'unligi kuylanadi), ma'rifiy g'azallarida esa (ilm va ma'rifatni targ'ib qilish, jaholatni qoralash) ustuvorlik qiladi. Ijtimoiy mazmundagi g'azallarida milliy uyg'onish, xalq taqdiri, vatan muhabbatining tarannum etish muhim ahamiyat kasb etadi.

a) Ishaqiy g'azal tahlili

Dilbaro, jamoling nuri ziyo bo'ldi, ey yor,
Qalbimizda shavqing bir jahon ovo bo'ldi, ey yor.

Mazkur baytda shoir an'anaviy ishqiy obrazlardan foydalanadi. Yor jamoli "ziyo" (nur) sifatida tasvirlangan, oshiqning qalbida esa muhabbat "ovo" (ovoz, shovqin, hayajon) bo'lib aks etgan. Ushbu obrazlar orqali oshiqning ruhiy kechinmalari ifodalanadi. Mumtoz she'riyatdagi yor – ilohiy haqiqat ramzi, oshiq -haqiqatni izlovchi tolib obrazlari uyg'un.

b) Ma'rifiy g'azal tahlili

Ilm ila ziynat topgay inson, ey birodar,
Jaholat uyin qilg'ay vayron, ey birodar.

Baytda shoir o'z zamonasida ma'rifiy she'rlarda urf bo'lib borayotgan an'anaviy pandnoma ruhini davom ettiradi. Insonning haqiqiy ziynati – ilm, jaholat esa vayronkor kuch sifatida ko'rsatiladi. Bunda Bokiy jadidlar tanlagan g'oyalariga yaqinlashib, ilm-ma'rifatni xalqni uyg'otuvchi kuch deb talqin qiladi. "Ilm" va "jaholat" so'zlari qarama-qarshi qo'yilib, antiteza badiiy san'ati hosil qilingan.

c) Ijtimoiy-axloqiy g'azal tahlili

Vatan ishqida yonmoq sharaftur, ey do'st,
Bu yo'lda jonni bermoq sharaftur, ey do'st.

Bu baytda shoir vatanparvarlik ruhini avj pardalarda kuylaydi. Vatan ishqini insoniy sharaftning eng yuksak darajasi deya talqin qiladi. Shoirning "jonni bermoq" iborasi fidoyilik, millat ozodligi yo'lida qurbon bo'lish g'oyalarini teran ifodalashga xizmat qiladi. Mazkur misralar XIX asr oxiri va XX asr boshidagi milliy uyg'onish davrining asosiy shiorlariga uyg'un sanaladi.

Shoir g'azallarida quyidagi san'atlar faol qo'llanadi:

1. Tashbeh (o'xshatish) yor jamoli – quyosh, oy, gul, nurning timsolida tasvirlanadi.
2. Tazod (qarama-qarshilik): ilm – jaholat, nur – zulmat, hayot – o'lim obrazlari orqali

ifodalanadi. 3.Iqtibos: Qur'on va hadisdan, mumtoz shoirlardan (Navoiy, Fuzuliy) ijodidan iqtiboslar olinadi. 4.Talmeh: tarixiy shaxslar va voqealarga ishoralar qilinadi.

Bokiy ijodi mumtoz g'azal an'analari asosida yozilgan, ammo milliy uyg'onish davri ruhini o'zida mujassam etgan. U ishqiy lirika orqali ham, ma'rifiy-ijtimoiy lirika orqali ham xalqni tarbiyalashni maqsad qilgan. Shoirning g'azallari o'z davrining ijtimoiy hayotini, xalqning ruhiy olamini badiiy aks ettiradi:

Dilrabo husning shafaqdin ham ziyoda nur sochar,
Bir nazar qilsa, jahonda g'am chekib nafsing yo'qar.

“Dilrabo husning” – yor husni tong shafag'idan ham nurli. Bu tashbehda yor jamoli quyoshning chiqish manzarasiga qiyos qilingan. “Bir nazar qilsa” – oshiqning barcha g'amlarini yo'qotadi. Bu yerda ishqiy lirikaning an'anaviy motivlari – yor nigohi shifo, dardga davo sanaladi.

Ko'nglima shavqing sabab bo'ldi hayotim navbahor,
Sendin o'zga hech g'amim yo'q, ey muqaddas yoru yor.

Oshiq qalbida sevgining bahori ochiladi. “Navbahor” – yashnash, yangilanish, ruhiy uyg'onish timsoli. Yor muhabbati ham dunyoviy, ham ilohiy zavqni bildiradi.

Ilm ila ziynat topar, ey do'st, inson, bilmagil,
Jaholat zulmatidur, yo'lingda poymol qilmagil.

Shoir ilmni insonning haqiqiy ziynati sifatida ko'rsatadi. Jaholat – zulmat, vayronkor kuch sifatida ifodalanadi. Bu baytda tazod (“ilm – jaholat”, “ziynat – zulmat”) asosiy badiiy san'at sifatida qo'llangan.

Har kim ilmda kamol topsa, yurtga bo'lar faxr,
Har kim jahlda qolsa, o'z nafsiga kulfat bo'lar.

Ilmli inson jamiyat uchun foyda keltiradi, jaholat esa nafaqat shaxs, balki butun millat uchun zarar. Bu fikr jadidlarning ma'rifatparvarlik ruhiga mos keladi.

Shoir ijodida avtanparvarlik mavzusi
Vatan ishqida yonar har kim, sharaf topgay do'st,
Bu yo'lda jon fido qilmoq, sharaf topgay do'st.
Vatan muhabbati insoniy sharafning eng yuksak mezoni sifatida tasvirlangan. Bu baytda shoir ijtimoiy-ma'rifiy she'riyat ruhini ifodalaydi. Vatanparvarlik ruhidagi g'azallar esa jadidchilik davrining ijtimoiy-ma'rifiy g'oyalariga yaqin turadi.

Xulosa.

Bokiy ijodida Alisher Navoiy g'azaliyotidan ta'sirlanish kuchli ahamiyat kasb etadi. U 1938-yili Toshkentga hazrat Navoiyning 500 yillik yubileyini o'tkazish bo'yicha chaqirilganidan so'ng shoir qalbida bu buyuk so'z mulkining dahosiga qiziqish yanada avj oldi. U shu yildan boshlab mumtoz adabiyot bilimdoni sifatida ijod maydoniga kirib keldi.

Shoir 1967-yilda insult kasalligi sababli vafot etgach, Rishton tumanidagi So'fi Sodiq nomli qabristonga dafn etilgan. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tomonidan shoirning qabr sag'anasi ustiga uning byusti o'rnatilgan bo'lib, bugungi kunda vatandoshimizga atalgan bu yodgorlik tumanda xotira ramzi sifatida saqlanib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References).

- 1.“Oqsoqollar kalomi. G'azallar, murabba'lar, muxammaslar, qasidalar”. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
2. Ahmedova O. “Girya. Hikoya va hajviyalar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.

3. Boborahimov M. “Bokiy”, Fozillar davrasin ko’rki. O’zbek adabiyotshunosi, dhoir Bokiy tavalludining 125 yilligiga. – Farg’ona, 2017.
4. Nizomiddinova Ch. “Barhayot gulshan”. Farg’ona, 2020.
5. “Bokiy guldastasi” / To’plovchi, nashrga tayyorlovchi va so’zboshi mualliflari: Barziyev O., Azizov B. – Farg’ona: Classic, 2024.
6. Po’lotjon Qayumiy. Tazkirai Qayumiy. III kitob. – Toshkent, 1998.

Azimova Sayyora Khusanboyevna, doctor of philosophy (PhD) in philology, associate professor, Fergana State University sayyora1926@gmail.com,
ORCID ID 0000-0003-4762-3638



“TABOO SPEECH ACTS IN DIFFERENT CULTURES” (BASED ON ENGLISH, RUSSIAN, JAPANESE AND UZBEK LINGUOCULTURES)

<https://zenodo.org/records/18729002>

Abstract: The article examines taboo speech acts as a specific pragmatic phenomenon reflecting cultural, social, and value-based norms of different linguacultures. Particular attention is paid to the analysis of speech acts of prohibition, insult, curse, intimate reference, and silence, which demonstrate varying degrees of acceptability and illocutionary force across cultures. Based on a comparative analysis of several languages and cultures, the study identifies similarities and differences in the realization of taboo speech acts, as well as mechanisms of mitigation, euphemization, and substitution. It is shown that the violation of taboo does not always lead to communicative failure and, in certain contexts, functions as a strategic tool for expressing emotions, power, or group identity. The findings contribute to the development of speech act theory, intercultural pragmatics, and linguacultural studies.

Keywords: taboo, taboo speech acts, speech act theory, pragmatics, illocutionary force, linguaculture, intercultural communication, euphemization, communicative strategies, discourse.

**«ТАБУИРОВАННЫЕ РЕЧЕВЫЕ АКТЫ В РАЗНЫХ КУЛЬТУРАХ
(НА МАТЕРИАЛЕ АНГЛОЯЗЫЧНОЙ, РУССКОЙ, ЯПОНСКОЙ И
УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУР)»**

Аннотация: В статье рассматриваются табуированные речевые акты как особый прагматический феномен, отражающий культурные, социальные и ценностные нормы различных лингвокультур. Основное внимание уделяется анализу речевых актов запрета, оскорбления, проклятия, интимного упоминания и молчания, которые в разных культурах обладают различной степенью допустимости и иллокутивной силы. На материале сопоставления нескольких языков и культур выявляются сходства и различия в реализации табуированных